

KOREYS FRAZELOGIYASIDA “QUVONCH” KONSEPTINING SEMANTIKASI

(Koreys tili frazeologik lug‘atlari asosida tahlil)

Panjiyeva Shahodat Olimjonovna

Email: shaho200656@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Inson hayotida ko‘pdan ko‘p qo‘llaniladigan xursandchilik ifodasidagi iboralar orqali quvonchning borliqidagi nazariyalari bir-biriga yaqin turadi. Quvonch ifodasining tildagi o‘ziga xos xususiyati nimadaligi va koreys xalqi quvonchni qanday anglab yetishini nazariy metaforalar orqali ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: *Frazeologizmlar, konsept, quvonch, lug‘at.*

АННОТАЦИЯ

Теории радости тесно связаны друг с другом в выражении радости, которое часто используется в жизни человека. Мы рассмотрим особенности выражения радости на языке и то, как корейцы воспринимают радость с помощью теоретических метафор.

Ключевые слова: *фразаология, концепт, радость, лексика.*

ABSTRACT

Theories of joy are closely related to each other in the expression of joy, which is often used in human life. We will look at the specifics of the expression of joy in the language and how the Korean people perceive joy through theoretical metaphors.

Keywords: *Phraseology, concept, joy, vocabulary.*

KIRISH

Ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ko‘chma ma’no ifodalaydigan, ta’sirchanlikka ega bo‘lgan til birligi ibora (frazeologik birlik) deyiladi. Frazeologizmlar o‘z ma’no xususiyatlari bilan so‘zlovchining boshqa odamlarga va muloqot predmetiga nisbatan emotsional ekspressiv qirralarga ega bo‘lgan subyektiv munosabatini ifodalaydi. Frazeologizmlar tarkibidagi so‘zlarning leksik-grammatik imkoniyatlari, ularning to‘g‘ri ma’nolari asosida birikishidan hosil bo‘lmaydi. Bundan tashqari ular tarkibidagi so‘zlarning semantik hamda grammatik munosabatida erkinlik ko‘rinmaydi. Chunki bu xil birikma, so‘zlarning erkin birikmasi bo‘lganidek, nutq momentining o‘zida tashkil topmay, balki ungacha tilda bir butun holda qo‘llanib, yashab kelgan bo‘ladi. Uni bir butun holga olib kelgan

hodisa tarkibidagi soʻzlarning bir maʼno markaziga kelib birlashishi, bu soʻzlarning birikib turib bir maʼnoni ifodalashidir.

사전 종류	기쁨에 하위어 및 의미
두산동아 표준국어대사전 (1999)	<p>-기쁘다: 마음에 즐거운 느낌이 나다.</p> <p>-감동: 크게 느끼어 마음이 움직임.</p> <p>-즐겁다: 마음에 거슬림이 없이 흐뭇하고 기쁘다.</p> <p>-만족하다: 마음에 흡족하다.</p> <p>-상쾌하다: 느낌이 시원하고 산뜻하다.</p> <p>-편안하다: 편하고 걱정이 없이 좋다.</p> <p>-자신감: 어떤 일을 해낼 수 있다거나 어떤 일이 꼭 그렇게 되리라는 데 대하여 스스로 굳게 믿음.</p> <p>-희망: 앞일이 대하여 어떤 기대를 가자고 바람. 앞으로 잘 될 수 있는 가능성.</p>
한글학회 우리말큰사전 (1994)	<p>-기쁘다: 좋은 기색이 드러나도록 마음에 즐거운 느낌이 나다.</p> <p>-감동: 느끼어 마음이 움직임.</p> <p>-즐겁다: 사뭇 기쁘거나 흐뭇하다.</p> <p>-만족하다: 마음에 모자람이 없이 흐뭇하다.</p> <p>-상쾌하다: 기분이 시원하고 산뜻하다.</p> <p>-편안하다: 몸과 마음이 거북하지 않고 걱정 없이 좋다.</p> <p>-자신감: 어떤일이 대하여 뜻한 대로 이루어 낼 수 있다고 스스로의 능력을 믿는 굳센 믿음.</p> <p>-희망: 앞일에 대한 바람, 가능성이거나 가망.</p>
동아대백과사전 (1992)	<p>일반적으로 욕구가 충족되었을 때 느끼는 감정.S 프러이드 (1856-1939) 기쁨을 선척적인 감정의 하나로 육체적인 쾌감이라 설명한다. 피부감각.포옹. 성감대에 자극 등에 의해 감각적 쾌락이 경험된다.</p>

Ushbu jadvalda koreys tilidagi “Quvonch” maʼnosini ifodalovchi konseptual lugʻatlar misollar bilan keltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Barchamizga ma'lumki tilda insonlar hayotida foydalaniladigan so'zlar ifodalanadi. Odatda insonlarda eski narsadan yangi narsa yasash qobiliyati bor. Insoniyatning shunday g'ayritabiiy holatini imkoni boricha sodda yoki keng tushuntirib berish maqsadida metaforadan ham foydalaniladi. Quvonch his-tuyg'ularni ifodalaydigan frazeologizmlar quyidagi 3 metafora asosida vujudga keladi:

I. Quvonch bu – hayotiy kuch, to'la-to'kis hayot kuchidir,

- a) Quvonch bu – titroq;
- b) Quvonch bu – iliqlik;
- c) Quvonch bu – umrni uzaytirish.

II. Quvonch bu – muloyimlashgan hayotiy kuchdir.

- a) Quvonch bu – xotirjamlik;
- b) Quvonch bu – yoqimlilik.

III. Quvonch bu – ko'tarilgan hayotiy kuchdir.

- a) Quvonch bu – mamnuniylik;
- b) Quvonch bu – yengillik.

IV. Quvonch bu – bayram.

- a) Quvonch bu – tabassum;
- b) Quvonch bu – raqs va qo'shiq;
- c) Quvonch bu – to'la-to'kislik.

V. Quvonch bu – umid.

- a) Quvonch bu – kengayish;
- b) Quvonch bu – yorug'lik;
- c) Quvonch bu – shijoat.

“Quvonch” degan yoqimli tuyg'uni yuqorida keltirilgan iboraviy metaforalar ma'nolar orqali aniq tushunib yetish mumkin. Shuningdek, koreys xalqining quvonch tuyg'usini qanday holatlarda his qilishini anglab yetish mumkin.

I. Quvonch bu – to'la-to'kis hayot kuchidir.

Quvonchning xususiyati shundaki, u hayotga kuch bag'ishlaydigan ilohiy kuchdir. Bu “Ta'sirlanish” degan tuyg'u bilan bog'liqdir. Inson ta'sirlansa, borliq kuchi to'qnash kelib hayajon va titroqni his qiladi. Sevgi yoki ta'sirlanish kabi tuyg'ular yurakdan his qilinadigan tuyg'ular bo'lib, shaxsning borliqdagi hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Quvonchning bir qismi bo'lmish “ta'sirlanish” qalbni harakatga keltiradigan kuch bo'lib va bu tilda “titroq, iliqlik, shukronalik” kabi so'zlarda ifodalanadi. Quyida quvonch tuyg'ularini ifodalaydigan iboralarga misolar keltirilgan:

I. Quvonchbu – titroq.

1.가슴이떨리다: [yuragi qaltiramoq] – yuragi xapqirib ketmoq; ichidan ta'sirlanib ketmoq.

Misol: 한강물 뒤집 혀용 솟음칠 그날이 다가온 감격에 가슴이 떨린다 -
Xangan suvining orqa tarafidan ko'tarilib kelgan o'sha kundan ta'sirlanib, yuragim xapqirib ketdi.

Birinchi misoldagi “가슴이 떨리다” iborasida hayotiy kuchning harakati orqali hayotga nisbatan ishtiyoq uyg'onish ma'nosi yotadi.

2.심금/ 가슴을 울리다: [yurakni ta'sirlantirmoq] – qalbni ta'sirlantirmoq/
tashqaridan qandaydir ta'sir olib ko'nglida tuyg'u paydo bo'lishi.

Misol:그 부인이 임종할때에 한만고에 심금을 울리는 유언으로 만인의 입에
곧잘 오르고 있다 ¹-Ayolni hurmat qiladigan bir gap qadimdan qalbni
ta'sirlantiradigan vasiyatli so'z sifatida og'izdan og'izga yetib kelmoqda.

Ikkinchi “가슴을 울리다” iborasida tuyg'u tashqaridagi ta'sir orqali nozik harakatga keltiradigan qalbni ‘*거문고의 떨림*’ ya'ni, “Komungoning titrashi”ga qiyoslagan holatda hisni qallda uyg'otish ma'nosida qo'llanilgan.

3.코끝이 찡하다/ 콧날이 찡하다:[burunning uchi jizzilamoq] – ta'sirlanib ketmoq.

Misol:쏟아지는 공폭탄속에서도 의연한 모성에 우리는 코끝이 찡해 왔어 ²-
Otilayotgan bombalar orasidan ham kuchli onaning mehridan bizning yuragimiz ta'sirlanib ketdi.

Uchinchi “가슴이 찡하다/ 코끝이 찡하다” iborada “qalbi to'lib ketganidan bir marta titramoq” kabi ma'noda tuyg'uni ifoda qiladi. Ya'ni, yuqorida keltirib o'tilgan frazeologizmlarni jismoniy tajribalardan vujudga kelgan birikma deb ham atasak bo'ladi.

4.가슴에 와닿다/ 가슴에 파고 들다:[yuragiga tegib ketmoq] / [yuragini qazib olmoq] – qalbni teshib yuboradigan darajada; qalbgaga tegib ketadigan darajada taassurot uyg'otmoq, ta'sirlanmoq.

Misol: 나는 아들이 보냈던 편지를 읽고 가슴에 파고 들었다 ³-Meno'g'lim yuborgan xatni o'qib ta'sirlanib ketdim.

¹ 조선일보.«이규태».1992.8.쪽.

² 현대시.박덕규.«이웃 황태자부처가우리마을에».1992.23.쪽.

³ 현대시.박덕규.«이웃 황태자부처가우리마을에».1992.26.쪽.

To'rtinchi “가슴에 와닿다 / 가슴에 파고 들다” iborasida biror bir narsadan judayam qattiq ta'sirlanganda ishlatilib, ushbu frazeologik iboradan koreys tilida unumli foydalaniladi.

5.눈시울이 시큰해지다 / 콧날이 시큰해지다: [ko'z qiri jimirlamoq] / [burni uchi jimirlamoq] – ko'z yosh chiqib ketadigan darajada ta'sirlanmoq.

Misol: 마리아가 이웃이 모르게 도와 주고 있는 소식을 들은 내가 너무 감동 받아서 눈시울이 시큰해졌다 – Mariya qo'shnisiga bildirmasdan unga yordam berayotganini eshitib juda ham ta'sirlandim.

Beshinchi “눈시울이 시큰해지다/콧날이 시큰해지다” iborada nimadandir juda ham qattiq quvonish natijasida qattiq ta'sirlanish vujudga kelgan holat aks ettirilgan.

2. Quvonchbu – iliqlik.

Jonli mavjudotlarning barchasi iliq va tinch joyda yaxshi unib o'sadi. Bu quvonchning “iliqlik va yengillik”dagi ichki ma'nosi bilan bog'liq tushunchadir.

6.가슴이 훈훈해지다: [ko'ngli yorishmoq] – qalbi yumshab, erib ketadigan darajada iliq taassurot olmoq.

Misol: 이 책을 덮으면 가슴이 훈훈해지고 잊고 지낸가난 조차 그리워진다. – Bu kitobni yopsam qalhim yumshab unut bo'lgan o'sha kambag'allikdagi hayotimni sog'inaman.

Oltinchi “가슴이 훈훈해지다” iborasi qalbni yumshatib, eritib yuboradigan darajada iliqlikni his qilganda yuzaga kelgan birikmadir.

7.가슴이 뜨거워지다: [yuragi qizib ketmoq] – hayajonlanmoq; juda ham kuchli hayajonlanmoq va katta ta'sir olmoq.

Misol: 검푸른 하늘을 향해 가지를 툭툭 뺨고 있는 고목을 보면 내 가슴은 이상하게 뜨거워오니 – Ko'm-ko'k osmonga qarab bo'yin cho'zib turgan quruq daraxt shoxlariga tikilib tursam agar/ Negadir yuragimga o'zgacha hayajon tushar.

Yettinchi “가슴이 뜨거워지다” iborasi qattiq sevilib va g'amxo'rlikni ko'rganda minnatdorchilik sifatida qalbida uyg'ongan tuyg'uni ifodalashdagi birikmadir. Bu yerda “yurak” xursandchilikni anglab yetadigan, asosiy ichki tuyg'uni his qildiradigan vazifani o'tayapti.

8.눈시울이 맵다: [ko'z qiri/ qarashi achchiq] – kuchli ta'sirlanmoq.

Misol: 나는 “파리에서 태어난 사랑”이라는 영화를 보면 항상 눈시울이 매워져요 – Men “Parijdagi muhabbat” nomlikinoniko'rganim dahar doim qattiq ta'sirlanaman.

Sakkizinchi “눈시울이 맵다” iborasida ta’sirlanganidan ko’tarilib ketgan harorat achchiq ta’mgga qiyoslangan.

9. 눈시울이 뜨거워지다: [ko‘z qiri/ qarashi qizib ketmoq]– ko‘z yoshlari chiqib ketadigan darajada qattiq ta’sirlanmoq.

Misol: 언젠가 텔레비전에서 코미디 영화 장면을 보게되면 눈시울이 뜨거워질 만큼 보는 것을 좋아한다 –*Qachon bo‘lishidn qat’iy nazar televizordagi komedik kinolarni ko‘radigan bo‘lsam ko‘z yoshim chiqquniga qadar tomosha qilishni yaxshi ko‘raman.*

Toqizinchil “눈시울이 뜨거워지다” birikmasida ta’sirlanganidan ko‘z yoshlari to‘kilganda yuzining harorati ko’tarilib ketganday “눈시울이 뜨겁다” iborasi bilan ifodalanadi.

10. 눈시울이 붉히다: [ko‘z qiri/qarashini qizartirib yubormoq] – qattiq ta’sirlantirmoq.

Misol: 어머니가 항상 내가 상을 받을때마다 우신다 –*Onam men har doim medal olganimda qattiq ta’sirlanganlaridan yig‘laydilar.*

O‘ninchil “눈시울이 붉히다” iborasida esa xursand bo‘lganidayoki qattiq ta’sirlanganda o‘zi bilmagan holda ko‘zi issib ketib ko‘z yoshi chiqib ketishi yoki burni jimirlab ketish holatlarida qo‘llaniladi.

3. Quvonch bu – hayajon namligining oshishi.

Hamma jonli mavjudotda hayajon bo‘lib, faol hayotiy kuchda hayajon ko’tarilishi bilan bog‘liqdir.

11. 가슴을 적시다: [ko‘nglini namlantirmoq] – hayajonlantirmoq.

Misol: 지나던 발길절로 멈추어 / 한줄기 눈물 가슴을 적신다 –*Bosib kelgan qadamimdan to‘xtab qoldim. Yum – yum oqayotgan ko‘z yoshlar hayajonlantirar yuragim.*

O‘n birinchi ibora tarkibidagi “적시다” – namlantirmoq so‘zi qaysidir jihatdan suv bilan aloqadorlik jihatlari bor. Ya’ni, yurak quvonchni o‘z ichiga olganligi bilan qiyoslangan bo‘lib, xursandchilik tuyg‘ulari qolipga solib tasvirlangan.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan iboralarda umid asosiy ramziy so‘z bo‘lib qatnashib kelgan. Bunday umid orqali insoniyat kelajakda o‘z quvonchiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, koreys tilida xursandchilik tuyg‘usini ifodalaydigan frazeologizmlar somatik so‘zlar bilan o‘zaro bog‘langan holda qo‘llanilar ekan. Xursandchilik 15 ta, ya’ni, ko‘z, quloq, bosh, og‘iz, yelka, qorin, kindik, bel, orqa, oyoq, boldir, ich, yurak,

o‘t pufagi, oshqozon, kabi tana a‘zolari bilan ifodalangan. Bu bilan insoniyat quvonchni boshidan to oyog‘ining uchigacha butun tanasi bilan his qilishini bilish mumkin. Yuqoridagi frazeologizmlardagi xursandchilikning ma‘nosi “hayotiy kuch, bayram, umid” kabi birikmalar bilan ta‘riflanadi. “Quvonch bu – hayotiy kuchdir” deb nomlanishida hayajon, jimirlash, iliqlik kabi tuyg‘ular ham birgalikda qo‘llaniladi. Quvonchni ifodalaydigan asosiy tana a‘zolaridan biri qalb hisoblanganligi sababli quvonchni ham qalb orqali his qilish tabiiydir. Qalb orqali hamisha insoniyat o‘z tuyg‘ularini ifodalay oladi.

REFERENCES

1. Karimov I.A. “Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch qudratimizga, hamjihatligimizga va qat‘iy irodamizga bog‘liqdir”. -T., O‘zbekiston, 2004.
2. Bozorboev K.T. O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari: filol. f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan diss. – Samarqand: A.Navoiy nomidagi SamDU. 2001. E.G‘oziyev. “Psixologiya” Toshkent. 2000.
3. Hamroyev M.A. O‘zbek tilidan ma‘ruzalar majmuasi. -T, 2007.
4. Raxmatullaev SH. Frazeologik birliklarning asosiy ma‘no turlari. T.: O‘z FA nashriyoti, 1997.
5. Umarov E.A. Frazeologik lug‘at, Toshkent, 1991.
6. Usmonova Sh.R. O‘zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar: filol. f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan diss. – T.: M.Ulug‘bek nomidagi ToshDU.1998.
7. Xojiyev A. Tilshunoslikning izohli lug‘ati. - T., 1998.
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
9. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуреда атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011.